

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdusalil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOIIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Uralov Eliboy Omonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti, Mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası professori, PhD.

E-mail: yeliboy.uralov84@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3183-2894

Annotatsiya. Mazkur maqolada Samarqand viloyati hududlarida sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning joriy holati hamda undan samarali foydalanish imkoniyatlari chuqur o'rganilgan. Tadqiqot natijalari sanoatni hududiy rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda, iqtisodiy rejalashtirish va investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: hududiy rivojlanish, sanoat salohiyati, ishlab chiqarish resurslari, iqtisodiy islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot, tarkibiy tuzilma, sanoat siyosati, statistik tahlil.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the current state of utilization of production potential in the development of industry across the regions of Samarkand region, as well as the opportunities for its efficient use. The research findings are significant for improving regional industrial development strategies, economic planning, and the formation of investment policy.

Keywords: regional development, industrial potential, production resources, economic reforms, macroeconomic stability, gross domestic product, structural composition, industrial policy, statistical analysis.

Аннотация. В данной статье глубоко исследованы текущее состояние использования производственного потенциала в развитии промышленности регионов Самаркандской области, а также возможности его эффективного использования. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования стратегии территориального развития промышленности, экономического планирования и формирования инвестиционной политики.

Ключевые слова: региональное развитие, промышленный потенциал, производственные ресурсы, экономические реформы, макроэкономическая стабильность, валовой внутренний продукт, структурная структура, промышленная политика, статистический анализ.

KIRISH

Samarqand viloyati respublikamizda eng birinchilar qatorida tashkil etilgan bo'lib, u 1938-yil 15-yanvarda ushbu ma'muriy maqomni olgan. Viloyatning maydoni 16,8 ming kv. km yoki O'zbekiston hududining 3,7 foiziga teng. Bunday nisbatan kichik hududda, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra dastlabki ma'lumotlarga qaraganda, 4360,1 ming aholi yashagan. Bu mamlakat aholisining 11,1 foizini tashkil etadi. Hududining ko'lami bo'yicha respublikamizda 7-o'rinda, aholi soniga ko'ra esa birinchi o'rinda turadi. Bundan xulosa qilish mumkin, viloyat aholisining zichligi o'rtacha mamlakat ko'rsatkichiga nisbatan deyarli 3 baravar yuqori.

Samarqand viloyati ma'muriy jihatdan 14 ta qishloq tumanlari, 11 ta shahar va 88 ta shaharchadan iborat. Bu yerda 124 ta qishloq fuqarolar yig'inlari hamda 1871 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Viloyat hududidagi eng qadimiy qishloq tumanlari 1926-yilda tashkil etilgan Bulung'ur, Narpay, Payariq, Pastdarg'om va Samarqand tumanlaridir. Eslatib o'tish joizki, mazkur ma'muriy-hududiy maqom aynan shu yilda joriy etilgan. Eng so'nggi tashkil etilgan tuman esa viloyat markazi "bag'rida" joylashgan Toyloq tumani hisoblanadi (1992-yil).



Maydoni bo'yicha eng katta tuman Nurobod tumani bo'lib, uning hududi 4,86 ming kv. km yoki viloyat hududining 28,9 foizini tashkil etadi. Viloyatning ikkinchi yirik hududi — Qo'shrabot tumani bo'lib, uning maydoni 2,16 ming kv. km ni tashkil etadi. Ayni vaqtda Toyloq tumani hududi atigi 0,28 ming kv. km ni tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oxirgi yillarda sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish, yangi texnologiyalarning rivojlanishi hududlarda erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, shuningdek, makroiqtisodiy prognozlashni aniqroq va tezroq amalga oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, ushbu yo'nalish O'zbekiston Respublikasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Xususan, Samarqand viloyatida sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi PQ-243-son qarori¹ orqali asoslab berilgan. Mazkur qarorga muvofiq, viloyatda "Nurobod texnoparki" maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari belgilangan bo'lib, bu hududlar iqtisodiyotiga sanoatning kirib kelishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi PQ-244-son "Samarqand viloyatini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori² viloyatni kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-fevraldagi PQ-60-son "Ohaliq-Oqbo'yro-Mironqul" turistik-rekreatsion zonasida faoliyatni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori³ viloyatda sanoat bilan bir qatorda turizm salohiyati ham yuqori ekanligini ko'rsatadi [3].

2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon⁴ asosida iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi [4].

Shuningdek, A.A. Qayumov, X.M. Nazarova, F.T. Egamberdiyev, O'.Sh. Yakubov tomonidan yozilgan "Mintaqaviy iqtisodiyot" (2004) asarida O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyoti keng tahlil qilingan [5].

Sh.H. Nazarov tomonidan yozilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida (2016) respublika mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslari yoritilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Samarqand viloyati sanoatining hududiy tarkibini takomillashtirish masalalari viloyat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Hududda sanoatni samarali rivojlantirish hamda uning hududiy tarkibini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan tadqiqot metodologiyasidan foydalanish zarur. Tadqiqot metodologiyasi sanoatning hududlar bo'yicha joylashuvi, rivojlanish darajasi va mavjud imkoniyatlarini kompleks tahlil qilishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Samarqand viloyatida sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuvini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda sanoatning hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, tahlil va sintez usullari qo'llanildi. Tahlil usuli orqali viloyat sanoatining alohida tarmoqlari, ishlab chiqarish hajmi, korxonalar soni va ularning hududlar bo'yicha joylashuvi o'rganildi. Sintez usuli esa olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va yakuniy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil usuli muhim o'rin egalladi. Ushbu usul yordamida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi, tarmoqlar tarkibi hamda hududlar kesimidagi rivojlanish darajasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida sanoatning hududiy rivojlanish dinamikasi aniqlandi.

Bundan tashqari, taqqoslash usuli yordamida Samarqand viloyati tumanlari o'rtasidagi sanoat rivojlanish darajasi solishtirildi. Bu esa qaysi hududlarda sanoat rivoji yuqori yoki past ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda kartografik usul ham qo'llanildi. Ushbu usul orqali sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi xaritalar asosida ifodalandi. Natijada sanoat markazlari, sanoat zonalarini va ishlab chiqarish hududlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv usuli orqali sanoatning transport, xom ashyo bazasi, mehnat resurslari hamda infratuzilma bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Bu yondashuv sanoat rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tarzda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot uchun asosiy axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar va iqtisodiy tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7667333>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7675843>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-6790527>

4 <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>

Natijada Samarqand viloyatida sanoatning hududiy tarkibini yanada takomillashtirish, yangi sanoat zonalarini tashkil etish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyati sanoatining hududiy tarkibini takomillashtirish masalalari O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya va sanoatni joylashtirish yo'nalishlarida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda sanoatning hududiy joylashuvi, resurslardan foydalanish, investitsiya muhiti hamda hududiy rivojlanish omillari tahlil qilinadi.

Umumiy holat tahliliga ko'ra, viloyat sanoatining jami hajmi 35 777,8 mlrd so'mni, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti esa 113 686,3 ming so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar viloyatda sanoat nisbatan yaxshi rivojlanganini ko'rsatadi, biroq hududlar kesimida sezilarli tafovutlar mavjud.

Yetakchi hududlar qatoriga, avvalo, Samarqand shahri kiradi. Unda sanoat ishlab chiqarish hajmi 14 328,6 mlrd so'mni tashkil etib, bu viloyat umumiy sanoat hajmining qariyb 40 foiziga teng. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish ulushi ham yuqori bo'lib, viloyat sanoatining deyarli yarmi aynan ushbu hududga to'g'ri keladi.

1-jadval. Samarqand viloyatini asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (mlrd so'm) 2025 yil ma'lumotlari⁵

№	Tuman va shaharlar	Sanoat mahsulotlari mlrd so'm	Foizda	Ishlab chiqarish aholi jon boshiga	Foizda
1	Samarqand viloyati	35777,8	100	113686,3	100
2	Samarqand sh.	14328,6	40,0	23885,1	21,0
3	Kattaqo'rg'on sh.	851,2	2,4	8837,4	7,8
	Tumanlar				
4	Oqdaryo	872,8	2,4	4886,9	4,3
5	Bulung'ur	929,1	2,6	4457,7	3,9
6	Jomboy	3591,6	10,0	18350,9	16,1
7	Ishtixon	856,1	2,4	3010,6	2,6
8	Kattaqo'rg'on	1687,9	4,7	5590,9	4,9
9	Qo'shrabot	228,3	0,6	1570,9	1,4
10	Narpay	847,2	2,4	3635,9	3,2
11	Payariq	587,6	1,6	2085,9	1,8
12	Pasdarg'om	1318,9	3,7	3338,6	2,9
13	Paxtachi	795,3	2,2	5120,0	4,5
14	Samarqand	2535,8	7,1	9039,0	7,9
15	Nurobod	520,1	1,5	3117,9	2,7
16	Urgut	3312,6	9,3	5734,8	5,0
17	Toyloq	2514,7	7,0	11023,8	9,7

Manba: Samarqand viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Kuchli sanoat markazlari, asosan, yirik korxonalar, rivojlangan infratuzilma va investitsiya oqimlari bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ikkinchi o'rinda Jomboy tumani turadi, unda sanoat ulushi 10 foizni, aholi jon boshiga ko'rsatkich esa 16,1 foizni tashkil etadi. Bu hudud muhim sanoat markazi sifatida ajralib turadi.

Uchinchi o'rinni Urgut tumani egallab, uning ulushi 9,3 foizni tashkil etadi. Shuningdek, Toyloq tumani (7,0%) va Samarqand tumani (7,1%) ham sanoat jihatdan barqaror rivojlanayotgan hududlar qatoriga kiradi.

5 Mualif ishlanmasi



Past rivojlangan hududlar qatoriga esa Qo'shrabot (0,6%), Payariq (1,6%) va Nurobod (1,5%) tumanlari kiradi. Ushbu hududlarda sanoat deyarli rivojlanmagan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar ham juda past darajada. Bu esa ishlab chiqarish salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

Hududlar o'rtasidagi nomutanosiblik sezilarli darajada yuqori. Masalan, Samarqand shahri viloyat sanoatining qariyb 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Qo'shrabot tumanida atigi 0,6 foizni tashkil etadi. Bu sanoatning hududlar bo'yicha notekis joylashganini va markazlashuv darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham hududlar kesimida katta tafovutga ega. Yuqori ko'rsatkichlar Samarqand shahri (21%), Jomboy tumani (16,1%) va Toyloq tumani (9,7%) hissasiga to'g'ri keladi. Past ko'rsatkichlar esa Qo'shrabot (1,4%) va Payariq (1,8%) tumanlarida kuzatiladi. Bu holat ayrim hududlarda resurslardan to'liq foydalanilmayotganligini anglatadi.

Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- sanoatning haddan tashqari markazlashuvi;
- ayrim tumanlarda ishlab chiqarish darajasining pastligi;
- infratuzilma va investitsiya yetishmasligi;
- hududlar o'rtasidagi katta tafovutlar mavjudligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlar taklif etiladi:

- sanoatni hududlar bo'yicha kengaytirish, xususan Qo'shrabot, Payariq va Nurobod tumanlarida yangi sanoat zonalarini tashkil etish;
- investitsiyalarni jalb qilish maqsadida past rivojlangan hududlarga qo'shimcha imtiyozlar berish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Samarqand viloyati respublikamizda, qolaversa, undan tashqarida ham mashhur bo'lishiga qaramasdan, uning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xususan sanoat va turizm sohalari mavjud imkoniyatlar darajasida emas. Vaholanki, viloyat yaqin o'tmishda yuqori sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan.

Shu sababli mamlakatimiz mintaqaviy siyosatida ushbu hududga alohida e'tibor qaratish zarur. Viloyatda yetarli xom ashyo va mehnat resurslari, transport hamda boshqa infratuzilma mavjud. Asosiy strategik vazifa ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda investitsiya muhitini yaxshilashdan iborat bo'lishi lozim (ayniqsa, qishloq tumanlarida).

Shu bilan birga, Samarqand shahrining an'anaviy funksiyasi — "Sayqali ro'yi Zamin" maqomini kelajakda ham saqlab qolish zarur. Binobarin, bu shahar o'zining transport vositalari bilan emas, eng avvalo, boy tarixiy-madaniy merosi va qadimiy yodgorliklari bilan mashhurligicha qolishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Samarqand viloyati sanoatini hududiy rivojlantirish masalalari O'zbekiston iqtisodchi va iqtisodiy geograf olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida hududiy ixtisoslashuv, sanoatni joylashtirish, infratuzilma, investitsiyalar hamda hududiy iqtisodiy siyosat asosiy ilmiy yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Samarqand viloyati sanoatining hududiy tarkibini takomillashtirish tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, sanoatni tumanlar kesimida mutanosib joylashtirish hamda innovatsiyalarni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Bu esa viloyat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va aholi bandligini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi "Samarqand viloyatida "Nurobod texnoparki" maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-243-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7667333>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-avgustdagi "Samarqand viloyatini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-244-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7675843>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-fevraldagi "Ohaliq-Oqbo'yro-Mironqul turistik-rekreasion zonasida faoliyatni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-60-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6790527>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-169-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>
5. Qayumov A.A., Nazarova X.M., Egamberdiyev F.T., Yakubov O'.Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Universitet, 2004.
6. Nazarov Sh.H. O'zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016. – 5 b.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100